

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, viloyatda 3 670 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 662 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,0 %) Urganch shahriga, 426 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 400 tasi (10,9 %) Xonqa tumaniga, 338 tasi (9,2 %) Qo'shko'pir tumaniga va 268 tasi (7,3 %) Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida 1 043 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 152 tasi Urganch shahriga, 130 tasi Xonqa tumaniga, 112 tasi Urganch tumaniga, 95 tasi Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-dekabr holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 29 987,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	29 987,6	108,4
Urganch shahri	4 410,1	110,1
Xiva shahri	447,1	108,6
tumanlar:		
Bog'ot tumani	702,0	112,3
Gurlan tumani	687,0	106,7
Qo'shko'pir tumani	811,7	111,3
Urganch tumani	1 297,4	109,1
Hazorasp tumani	664,0	107,4
Tuproqqal'a tumani	13 021,0	103,0
Xonqa tumani	1 090,2	107,3
Xiva tumani	652,1	110,3
Shovot tumani	989,6	105,8
Yangiariq tumani	811,9	106,3
Yangibozor tumani	1 001,0	112,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (213 242,3 ming so'm), Urganch shahrida (28 143,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (14 658,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Yangibozor tumanida (110,5 %), Bog'ot tumanida (110,1 %), Qo'shko'pir tumanida (109,4 %), Urganch shahrida (108,3 %) va Xiva tumanida (108,1 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 28 912,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,41 %) ni tashkil etgani holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 4,1 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 865,3 mlrd so'm (2,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 205,9 mlrd so'm (0,69 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-noyabr oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 99 593,7 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 8,1 % ga ko'paygan), 88 903,3 tonna shakar (51,9 % ga kamaygan), 3 056,3 tonna o'simlik yog'i (49,3 % ga kamaygan), 40 437,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (28,6 % ga ko'paygan) hamda 85 384 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (7,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- noyabr*	2024-yil yanvar- noyabr*	2025-yil yanvar- noyabr
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	79 819	92 011	85 384
Maxsus yengil avtomobillar, dona	20 896	22 439	46 892
Paxta tolasi, t	85 237,4	95 798,4	99 593,7
Shakar, t	222 291,2	184 857,3	88 903,3
O'simlik yog'i, t	5 098,9	6 022,4	3 056,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	43 335,0	31 446,4	40 437,2
Paxta chigiti, t	141 762,8	151 962,5	154 716,1
Paxtadan yigirilgan ip, t	28 661,2	37 344,1	35 357,2

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,9 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,09 % ni (2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,11 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 40,9 % (39,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,7 % (5,7 %), quyi texnologiyali 49,6 % (52,0 %) ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-noyabr oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida 85 384 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga kamaygan), 46 892 dona maxsus yengil avtomobillari (2,1 martaga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-noyabr oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 88,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 127,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 298,8	1 158,9	1 027,4
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	1 298,8	1 158,9	1 027,4
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	99,7	93,0	118,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 25,4 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 19,3 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 24,8 % ga oshganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	5 636 361,0	17 503 670,0	14 126 557,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	131 313 175,0	157 462 141,0	197 471 652,0

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	19 688 845,0	39 200 713,0	48 903 229,0
---	--------------	--------------	--------------

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 111,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,7 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,9 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik



korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

